

## Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri tashkil etildi

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyaga asoslaniladi. Mazkur jarayonlarda nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimizga ham alohida e'tibor qaratilib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, ularni jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi faolligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

3 dekabr - Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan tumandagi "Baxt uyi" tantanalar saroyida tashkil etilgan tadbir ham mazkur maqsadlarning amaliy ifodasi bo'ldi, deyish mumkin.

Talbirda tuman hokimi Bahodirjon Xodiqov boshchiligidagi sektor rahbarlari, favqulodda vaziyatlar, mudofaa ishlari, qo'riqlash bo'limlari boshliqlari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tuman bo'limi hamda jamoatchilik vakillari qatnashdilar.

Tuman hokimi tadbir ishtirokchilarini bayram bilan samimiy qutladi.

Prezidentimiz tomonidan mamlakatimizda imkoniyati cheklangan fuqarolar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarni e'tirof etib o'tdi.

Bayram ishtirokchilariga tuman madaniyat bo'limi, bolalar musiqa va san'at maktabi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari badiiy havaskorlari tomonidan qo'shiqlar aytilib, raqslar ijro etildi. Tadbir ishtirokchilariga bayram sovg'alari topshirildi.

2024-12-04 14:28:04